



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Xujakulov Sherzod Amankulovich,
²Eshmuradova Dilrabo Xudoyberdi qizi,

¹*Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi,*
E-mail:timlandiya@gmail.com Tel: +99897-916-26-86
<https://orcid.org/0000-0002-0954-3058>

²*Siyob abu ali ibn sino nomidagi salomatlik texnikumi o‘qituvchisi*
E-mail: eshmuradovadilrabo@gmail.com, Tel:+998 33-844-88-30

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MEDIA SAVODXONLIKNING TUSHUNCHASI – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning media savodxonligini oshirish, media savodvonlik tushunchasi, media savodxonlik komponentalari hamda shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning fikrlari keltirlilgan.

Kalit so‘zlar: media savodvonlik, media savodvonlik komponentalari, bo‘lajak o‘qituvchi, yoshlar, ta’lim.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы повышения медиаграмотности будущих учителей, понятие медиаграмотности, компоненты медиаграмотности, а также мнения ученых, проводивших научные исследования в этой области.

Ключевые слова: медиаграмотность, компоненты медиаграмотности, будущий учитель, молодежь, образование.

Abstract. This article presents the views of scientists who have conducted scientific research in this area on improving the media literacy of future teachers, the concept of media literacy, the components of media literacy, and the opinions of scientists who have conducted scientific research in this area.

Keywords: media literacy, components of media literacy, future teacher, youth, education.

Kirish. Hozirgi jamiyatda ta’limning uzlusizligida media savodxonlik (MS) har bir shaxs, ayniqsa, pedagoglar uchun juda muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Chunki axborot oqimi tobora ortib borayotgan bu davrda o‘qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki axborotni tahlil qiluvchi, saralovchi va tanqidiy baholovchi mutaxassis sifatida shakllanishi darkor. Ta’lim tizimiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan kirib kelishi (AKT) bo‘lajak o‘qituvchilar zamon yoshlari ongiga ilm-ma’rifat urug‘ini ekish uchun avvalo o‘zlarining MSgi mukammal shakllanishi lozimligini ko‘rsatadi.

Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlili. Ilmiy-metodik adabiyotlarda “media savodxonlik” atamasiga nisbatan ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish, faoliyatini boshqarish, kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish va qulay sharoit yaratish kabi jihatlari nazarda tutiladi. Shu bilan birga, mualliflar tomonidan uchbu tushunchaning mazmun-mohiyatini ifodalovchi turli yondashuvlar ham ilgari surilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar nuqtai nazaridan ushbu atamani moslashtirish ularning zamonaviy ta’lim muhitida mauvaffaqiyatl faoliyat yuritishi va o‘quvchilarni raqamli dunyoda yetaklashish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Quyida bir qancha olimlarning bo‘lajak o‘qituvchilar uchun “media savodxonlik” atamasining izohiga doir fikrlarimizni keltiramiz.

AQSHlik olim R.Hobbs, – MSlikni “...ommaviy axborot vositalaridan keladigan xabarlarni tahlil qilish, baholash va ularga tanqidiy munosabatda bo‘lish, shuningdek, o‘z xabarlarini yaratish qobiliyati” [4] deb ta’riflaydi. Bu ta’rif MSning shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki shaxsning intellektual, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishning asosiy mohiyatini ochib beradi va uni shunchaki axborotni qabul qilishdan ko‘ra kengroq – faol, tanqidiy jarayon sifatida tasvirlaydi.

Buyuk Britaniyalik olim Sonia Livingistone esa “... raqamli asrda axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘plami” [8] deb hisoblaydi. U bu fikri bilan MSni zamonaviy texnologiyalar kontekstida shaxsning raqamli muhitida o‘zini erkin tutishi, axborotni samarali qo‘llashi va muloqot jarayonlarida faol ishtiok etishi uchun zarur bo‘lgan kompleks qobilayti sifatida ko‘radi. Livingistone nazarida, raqamli asrda internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil yexnologiyalar hayotning ajralmas qismiga aylangan bir sharoitda, MS shaxsni nafaqat axborotni tushunish va tanqidiy baholashga, balki uni ijodiy tarzda qayta ishslash va o‘z xabarlarini ommaga yetkazishga o‘rgatadi. Uning fikricha bu ko‘nikmalar to‘plami shaxsiy rivojlanish, ta’lim, fuqorolik faolligi va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki raqamli muhitda bilim va malakasiz qolgan shaxs zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaydi.

Taniqli amerikalik olim, media tadqiqotchisi va professor Jeyms Potterning eng taniqli asari – “Media Literacy” (Media savodxonlik) kitobida MSlikning zamonaviy

ta'limgangi o'rni, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati va raqamli muhitdagi dolzarbligini ken yoritadi. Kitobda u o'qituvchilar va talabalarni axborotni tahlil qilish, manipulyatsiyadan himoyalananish va o'z xabarlarini yaratishga o'rgatishga alohida e'tibor beradi [6].

Tadqiq va natija. Davlatimiz rahbari ta'lim sohasidagi barcha chiqishlarida yoshlarga doimo yuksak e'tibor berib, ularni mamlakatimizning eng muhim boyligi sifatida e'tibor qaratib keladi. Rahbarimiz bir qator uchrashuvlarda "...yoshlar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash men uchun kata xursandchilik va mas'uliyat", bag'ishlaydi deb ta'kidlasa yana boshqa bir uchrashuvida "...yoshlar – xalqimizning "oltin fondi" " degan fikrlarni bildiradi. [2]. Ushbu iboralar yoshlarning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatibgini qolmay, balki ularga yuklatilgan ulkan ishonch va mas'uliyatni ham anglatadi.

Shavkat Mirziyoyev yoshlarni "oltin fond" deb ataganida, ularning zamonaviy dunyodagi muammolarga yechim topishdagi roliga ham e'tibor qaratadi. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlardagi zararli axborot oqimi, "feyk" ya'ni "yolg'on" yangiliklar va ma'naviy qashshoqlikka olib boruvchi g'oyalar yoshlar uchun xavf tug'diradi. Prezidentimiz bu xatarlarning oldini olish uchun yoshlarni media savodxonligiga o'rgatish, ularni tanqidiy fikrlashga undash va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish kerakligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, mamlakatimizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida keng miqiyosida rivojlanayotgan ta'limning dunyoviy xususiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bu prinsip ta'lim jarayonining diniy ta'sirlardan xoli bo'lishini, ilmiy asosga tayanishini va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishini anglatadi. Qonunning 4-moddasida keltirilgan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplarida "...ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi" [1; 3-b.] aniq ko'rsatilgan bo'lib, bu ta'lim muassasalarida fan va aqlga asoslangan bilimlarni olishda MSlik o'z o'rniga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimining dunyoviy xususiyati bo'lajak o'qituvchilar uchun MSni o'zlashtirishda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy axborot muhitida diniy, mafkuraviy yoki boshqa noilmay ta'sirlardan xoli bo'lgan dunyoviy ta'lim media mazmunini tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri baholash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. MS o'qituvchilar uchun nafaqat shaxsiy malaka, balki o'quvchilarga axborotni ilmiy asosda tahlil qilishni o'rgatish vositasi sifatida ham muhimdir. Qonunda ta'kidlangan dunyoviy xususiyat media muhitida tarqalayotgan xurofot, yolg'on ma'lumotlar va manipulyatsiyalarga qarshi turishda o'qituvchilarni tayyorlashni talab qiladi.


Ammo bo'lajak o'qituvchilarda MSning yetarli darajada shakllanmagani pedagogik muammo sifatida qolmoqda. Dunyoviy ta'lim tizimi ilmiy bilimlarga

asoslangan bo‘lishiga qaramay, amaliyotda ko‘plab o‘qituvchilar raqamli muhitda axborotni filtrlash, ishonchliligin tekshirish va o‘quv jarayoniga moslashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ta’limning dunyoviy xususiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishda to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, ijtimoiyy tarmoqlarda tarqalgan noto‘g‘ri ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasining yo‘qligi o‘quvchilarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu o‘rinda “Media savodxonlik” tushunchasiga ham batafsilroq to‘xtalsak. Media savodxonlik (inglizcha: *media literacy*) – bu ommaviy axborot vositalari, internet va raqamli platformalardan keladigan ma’lumotlarni tushunish, tanqidiy tahlil qilish, baholash va ulardan oqilona foydalana olish qobiliyatini anglatadi. Zamonaviy dunyoda axborot oqimining keskin oshishi, “feyk yangiliklar” tarqalishi va manipulyatsiya xavfi media savodxonlikni har bir shaxs uchun muhim ko‘nikmaga aylantirdi. Bu tushuncha nafaqat shaxslarning axborotni iste’mol qilish odatlarini shakllantiradi, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ham ta’minlaydi [3].

Media savodxonlikning asosiy strukturasini quyidagi komponentlardan ham ko‘rishimiz mumkin (1.1-rasm).

1.1-rasm. Media savodxonlikning asosiy komponentlari.



Axborotni tushunish – MSning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, shaxslarning ommaviy axborot vositalari, ijtimoiyy tarmoqlar yoki boshqa raqamli platformalar orqali yetib keladigan xabarlarning maqsadi, mazmuni va kontekstini anglash qobiliyatini anglatadi. Bu jarayon nafaqat axborotni yuzaki qabul qilish, balki uning orqasidagi niyat, ma’no va muhitni chuqur tushunishni o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu ko‘nikma zamonaviy ta’limda muhim ahamiyatga ega, chunki ular o‘quvchilarga media muhitidagi axborotni to‘g‘ri talqin qilishni o‘rgatishi kerak [4].

Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotni qabul qilishda passiv yondashuvdan voz kechib, uni faol ravishda so‘roq qilish, dalillar asosida tekshirish va xolis xulosa

chiqarish jarayonidir. Bu jarayon shaxsni mustaqil fikrlashga undaydi va axborotni soddadilona qabul qilishdan saqlaydi [5].

Axborotdan foydalanish – bu olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llash va shu asosda o'z xabarlarini yaratish jarayonidir. MSning muhim qismi sifatida axborotdan foydalanish shaxsni passiv axborot iste'molchisidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni birlashtirib, zamonaviy axborot muhitida shaxsning o'z o'rnini topishiga yordam beradi [6].

Raqamlari xavfsizlik – internetdagi shaxsiy ma'lumotlar, moliyaviy resurslar va shaxsiy hayotni himoyalash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va texnologik choralarini o'z ichiga oladi. Bu jarayon shaxsni xavfli kontent (masalan, zo'ravonlik, firibgarlik, noto'g'ri targ'ibot) va kiberxurujlardan (masalan, fishing, viruslar) saqlashga qaratilgan [7].

Bo'lajak o'qituvchilarda media savodxonlikning yetarli darajada shakllanmaganligi pedagogik muammo sifatida quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Zamonaviy ta'lim talablari bilan moslashuv muammosi: Hozirgi ta'lim tizimi o'qituvchilardan raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashni va axborotni filtrlashni talab qiladi. Agar bo'lajak o'qituvchilar media savodxonlikka ega bo'lmasa, ular o'quvchilarni zamonaviy axborot muhitiga tayyorlay olmaydi.

2. Tanqidiy fikrlashning yetishmasligi: Media savodxonlik tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositasidir. Bo'lajak o'qituvchilar axborotning ishonchligini baholay olmasa, bu ularning o'quv jarayonida noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatishiga olib kelishi mumkin.

3. Axborot xavfsizligi masalalari: Internetdagi xavfli kontent, ma'lumotlar maxfiylici va raqamli tajovuz kabi muammolar bo'lajak o'qituvchilar uchun ham, ular tarbiyalaydigan o'quvchilar uchun ham xavf tug'diradi. Media savodxonlikning yo'qligi bu xavflarni yanada kuchaytiradi.

4. Pedagogik tayyorgarlikdagi bo'shiqlar: Ko'pgina ta'lim dasturlarida media savodxonlikka yetarlicha e'tibor berilmaydi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar ushbu ko'nikmani universitet davrida emas, balki keyinchalik, tajriba orqali o'zlashtirishga majbur bo'ladi, bu esa samarasiz va sekin jarayon hisoblanadi.

Tavsiyalar. Bo'lajak o'qituvchilar media savodxonlikka ega bo'lmasa, bu ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Ular o'quvchilarda axborotni tahlil qilish, yolg'on ma'lumotlarni aniqlash va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantira olmaydi. Shu sababli, media savodxonlikni pedagogik muammo sifatida e'tirof etish va uni hal qilish uchun quyidagi choralar ko'riliши mumkin:

– Ta'lim dasturlarini yangilash: Universitetlarda bo'lajak o'qituvchilar uchun media savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar joriy qilinishi kerak.

– Amaliy mashg‘ulotlar: Media matnlarni tahlil qilish, raqamli vositalardan foydalanish va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amaliyotlar tashkil etilishi lozim.

– O‘qituvchilar malakasini oshirish: Hozirda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarga tajriba almashish imkoniyati yaratilishi zarur.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarda media savodxonlikning yetishmasligi nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligiga, balki umumiy ta’lim tizimining samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu muammoni pedagogik jihatdan hal qilish zamonaviy ta’limning dolzarb talablaridan biri bo‘lib, kelajak avlodni axborot muhitida oqilona harakat qilishga tayyorlash uchun asosiy shart hisoblanadi. Shu sababli, media savodxonlikni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun 2023 yil 23- sentabr
2. Mirziyoyev Sh.M. (yoshlar bilan uchrashuvi) – URL:
<https://president.uz/uz/lists/view/7872> 2024-y. 14-fevral
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik>
4. Hobbs R. “Media Literacy in Action: Questioning the Media” (Rowman & Littlefield, 2021). URL: www.rowman.com.
5. Facione, P. A. “Critical Thinking: What It Is and Why It Counts” (Insight Assessment, 2020). URL: www.insightassessment.com.
6. Potter J. “Media Literacy” (Sage Publications, 2018). URL:
https://openlibrary.org/books/OL686793M/Media_literacy .
7. Livingstone, S. & Haddon, L. “EU Kids Online: Final Report” (LSE, 2009). URL: www.lse.ac.uk.
8. Livingstone, S. “Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies” (The Communication Review, 2004).